

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

**ISXAKOV BEXZOD BARKAMALOVICH**

**FARG‘ONA VODIYSI O‘ZBEKLARINING AN‘ANAVIY EKOLOGIK  
MADANIYATI (TARIXIY-ETNOLOGIK TADQIQOT)**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Bexzod Barkamalovich Isxakov**

Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining an‘anaviy ekologik madaniyati  
(tarixiy-etnologik tadqiqot) ..... 3

**Bekhzod Barkamalovich Iskhakov**

Traditional ecological culture of the Uzbeks of the Ferghana valley  
(historical-ethnological research) ..... 25

**Бехзод Баркамалович Исхаков**

Традиционно-экологическая культура узбеков Ферганской долины  
(историко-этнологическое исследование) ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 51

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI**

**ISXAKOV BEXZOD BARKAMALOVICH**

**FARG‘ONA VODIYSI O‘ZBEKLARINING AN‘ANAVIY EKOLOGIK  
MADANIYATI (TARIXIY-ETNOLOGIK TADQIQOT)**

**07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2017.1.PhD/Tar62. raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan muhandislik-qurilish institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ashirov Adhamjon Azimbayevich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Abdulhatov Nodirbek Urayimovich**  
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

**Isoqov Ziyodullo Safaraliyevich**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2023-yil "14" 08 soat 900 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Gender tengligi tadqiqotlar markazi, 1-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu\_info@umail.uz., Farg'ona davlat universiteti).

222 Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi). Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "29" 07 kuni tarqatildi.  
(2023-yil "29" 07 dagi 24 raqamli reestr bayonnomasi).



**B.A. Usmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.f.d., dotsent

**N.O. Alimova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, t.f.f.d., dotsent

**M.G. Abdullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** XX asrning oxiri – XXI asr boshlarida fan-texnika va iqtisodiyotning tezlik bilan taraqqiy etishi, inson omilining tabiatga ta'sirining kuchayishi tufayli biosfera ekotizimlarining buzilishi, cho'llanish hamda sayyorada haroratning ortib borishi dunyo miqiyosida global ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, Yer yuzida atmosferaning ifloslanishi, havo haroratining asta-sekinlik ko'tarilib borishi, o'rmonlarning tezlik bilan qisqarib borayotganligi, tuproq degradatsiyasi, toza ichimlik suvi tanqisligi, ozon qatlamining yemirilishi singari ekologik muammolar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning yetakchi ilmiy muassasalari tomonidan insoniyat taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonining tezlashishi oqibatida atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazayotgan ekologik xavf bilan birga mintaqaviy ekologik madaniyatlarni o'rganish borasida jiddiy ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armalari (WWF) va London zoologiya jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, 1970-yildan buyon jahonda yovvoyi hayvon hamda qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foizga kamaygan, ya'ni havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76, yer ustida yashaydiganlar hamda suvda istiqomat qiladiganlar soni 39 foizga qisqargan. Shuningdek, har yili inson faoliyati oqibatida 11 million gektar tropik o'rmonlar kesilib, nobud bo'lmoqda<sup>1</sup>.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqining yer, suv, havo, olov va tabiatga ongli ravishdagi munosabati, ularni e'zozlash bilan bog'liq qadimiy urf-odatlarini, marosimlarining genezisi uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganidek: "Hozirda eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin"<sup>2</sup>. Ma'lumki, Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyoning "gavhari" bo'lib, u o'ziga xos ekotizimi va aholining lokal ekomadaniyati bilan ajralib turadi. Vodiyning orografik jihatdan berk havza ekanligi uning o'ziga xos o'zgaruvchan iqlim sharoitini vujudga keltirgan. Shu bois, atrofdagi tog'lar Shimoliy Arktika sovuq iqlimi va g'arbdan keluvchi Atlantika iqlimi havo massalari yoki sharqiy nam havo massalarining kirib kelishiga to'sqinlik qilishi natijasida o'ziga xos ekotizim va ekomadaniyat shakllanishiga olib kelgan. Aynan shu sababdan ham Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy ekologik madaniyatini tarixiy va etnologik jihatdan tadqiq etish muhim ilmiy, amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

<sup>1</sup> [https://uza.uz/posts/ekologik-muammolarni-hal-etish-strategik-vazifa\\_336097](https://uza.uz/posts/ekologik-muammolarni-hal-etish-strategik-vazifa_336097). 8.01.2021- yil

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 570.

to'g'risida"gi PF-4947-son va 2022- yil 28- yanvardagi "2022–2026- yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategisi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni<sup>3</sup>, O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan hududlar to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi (yangi tahriri), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi bir qator qonunlar va boshqa normativ hujjatlar hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyat, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi" dasturining ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadqiq qilinayotgan muammo maxsus tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, ko'plab asarlar va maqolalarda masalaning u yoki bu jihatlari ma'lum darajada yoritilgan. Tadqiqotda ilmiy muammoning turli qirralarini o'zida aks ettiruvchi, mavzuga doir adabiyotlar shartli ravishda to'rt guruhga ajratildi. Jumladan, birinchi guruhga XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid adabiyotlar, ikkinchi guruhga sovet davri tadqiqotlari kiradi. Uchinchi guruh mustaqillik yillarida chop etilgan nashrlardan, to'rtinchi guruh esa xorijiy adabiyotlardan iborat.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, Farg'ona vodiysi aholisining turmush tarzi va an'analari xususidagi Rossiya imperiyasi davri tadqiqotchilarining ma'lumotlari ko'proq empirik xarakterda bo'lib, ulardan ko'proq umumiy xulosalar chiqarish mumkin, xolos. Keyinchalik ular vodiylar aholisining an'anaviy turmush tarzi, xo'jalik tiplari va boshqa jihatlari jiddiy e'tibor qarata boshlaganlar. Umuman olganda, mintaqa to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarda Turkiston o'lkasi, xususan, Farg'ona vodiysiga birinchi navbatda, metropoliyaning xomashyo bazasi sifatida qarashlar aks etgan bo'lsa<sup>4</sup>, keyingilarida esa birmuncha chuqur ilmiy izlanishlarga asoslangan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Masalan, Rossiya imperiyasi tomonidan uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarda qatnashgan botanik A.P.Fedchenko, geograf va zoolog I.A.Seversev, geolog I.V.Mushketov va I.G.Aleksandrov singari tadqiqotchilar tomonidan Turkiston o'lkasi, xususan, Farg'ona vodiysi uni o'rab turgan tog' tizmalarining tabiati, iqlimi, o'simlik dunyosi haqida qimmatli ilmiy ma'lumotlar to'plangan<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон "2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони // <http://strategy.regulation.gov.uz>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ60-сон "2022–2026- йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони // [lex.uz](http://lex.uz).

<sup>4</sup> Вельяминов-Зернов В. Сведения о Кокандском ханстве // ВИРГО. 1856. Кн.V. Ч. XVIII. – С. 106–107; О'sha muallif: Кокандское ханство по новейшим сведениям // Военный сборник. 1865. – С. 23–26; О'sha muallif: Хозяйство сартов Ферганской области. – Ташкент, 1911. – 48 с.

<sup>5</sup> Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. – Москва, 1950. – С. 9–10; Северцев Н.А. Краткий отчет о Памирских исследованиях и общих научных результатах Ферганской ученой экспедиции. – СПб., 1878;

Farg‘ona vodiysida keng hajmdagi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan rus olimi, akademik A.F.Middendorfnining xizmatini alohida ta’kidlash joiz. Mazkur olim Turkiston general-gubernatori fon Kaufman tomonidan o‘lkani o‘rganish maqsadida maxsus taklif etilgan bo‘lib, uning “Очерки Ферганской долины” nomli asarida vodiyning geografik o‘rni, tabiati, iqlimi, daryo va tog‘lari, aholining etnik tarkibi, turmush tarzi hamda qishloq xo‘jaligining turli sohalariga oid qimmatli ilmiy ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan<sup>6</sup>.

Xuddi shu davrda yana bir tadqiqotchi V.I.Kushelevskiy tomonidan yaratilgan asarda vodiylar aholisining tibbiy-sanitariya masalalariga oid qarashlari tahlil qilingan. Ushbu asar asosan, Turkistonda xalq tabobatining ahvoli, aholining ijtimoiy hayotiga doir statistik ma’lumotlarni o‘zida jamlagan. Shuningdek, unda vodiylar irrigatsiyasi va melioratsiyasiga oid ayrim e’tiborga molik fikr-mulohazalar ham bildirilgan<sup>7</sup>.

XX asr birinchi choragi, aniqrog‘i, sobiq ittifoq davridan boshlab Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining ijtimoiy-madaniy hayotiga oid bir qancha ilmiy tadqiqotlar natijasi sifatida o‘zbek xalqi etnografiyasining turli mavzulari doirasida ilmiy maqola va asarlar nashr etilgan<sup>8</sup>. O‘z o‘rnida shuni ham ta’kidlash kerakki, mazkur asarlar o‘sha davr mafkurasi tazyiqi ostida yaratilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyatida Farg‘ona vodiysi aholisining etnoekologik madaniyatiga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlar aks etgan.

XX asr boshlarida mintaqa xalqlari etnografiyasi borasida dastlab maxsus tadqiqotlar bajarilgan bo‘lib, bu borada Y.M.Pesherovaning Qo‘qon uyezdiga qarashli Isfara qishlog‘ida o‘tkaziladigan “Lola sayli” to‘g‘risida ma’lumotlari Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining bahorgi marosimlarini o‘rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Jumladan, muallif ushbu sayilning o‘tkazilish tartibi, unda erkak va ayollarni ishtiroki, ayni odat bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlarni bayon qilgan. Hamda, mazkur bayram davomida aytiladigan xalq og‘zaki ijodi na’munalarini o‘rganish asnosida mintaqa xalqlari an’anaviy ekologik madaniyati borasida ham g‘oyat qiziqarli ma’lumotlarni qayd etgan<sup>9</sup>.

Sovet davri tadqiqotlarida etnoekologik madaniyat borasida mulohaza yuritganda, rusiyzabon etnologlaridan S.Arutyunov<sup>10</sup>, R.Its<sup>11</sup>, I.Krupnik<sup>12</sup>, V.L.Voronina<sup>13</sup>, N.N.Cheboksarev va I.A.Cheboksareva<sup>14</sup>, A.K.Bayburin<sup>15</sup>

---

Мушкетов И.В. Туркестан. – СПб., 1886. Т. I. – С. 277–278; Александров И.Г. Агрономический очерк юго-восточной части // Проект орошения юго-восточной Ферганы. – Москва: Издание ТЕС, 1923. – С. 55–115.

<sup>6</sup> Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882. – С. 10–320.

<sup>7</sup> Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. В 3 т. – Новый Маргелан, 1891. Т. 1.; О’sha muallif: Материалы для медицинской географии и санитарного описания Ферганской области. Том 2. – Новый Маргелань. 1891. – 476 с.

<sup>8</sup> Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886. – 244 с.; Наливкин В. Туземцы: раньше и теперь. – Ташкент, 1913. – 144 с.

<sup>9</sup> Пещерова Е.М. Праздник тюльпана (лола) в сел. Исфара Кокандского уезда. – Ташкент, 1927. – С. 374–383.

<sup>10</sup> Арутюнов С.А. Народы и культуры. Развитие и взаимодействие. – Москва: Наука, 1989. – 243 с.

<sup>11</sup> Итс Р.Ф. Введение в этнографию: Учебное пособие. – Ленинград, 1991. – 168 с.

<sup>12</sup> Крупник И.И. Арктическая этноэкология. – Москва: Наука, 1989. – 272 с.

<sup>13</sup> Воронина В. Жилище народов Средней Азии и климат / Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1982. – С. 48–69.

<sup>14</sup> Чебоксарев Н., Чебоксарева И. Экология и типы традиционного сельского жилища / Типология основных элементов традиционной культуры. – Москва, 1984. – С. 34–62.

<sup>15</sup> Байбурин А. Жилище в обрядах и представлениях восточных славян. – Ленинград, 1987. – С. 191; Байбурин А. Жилище в обрядах и представлениях восточных славян. – Москва: ЯСК, 2005. – 217 с.

O.A.Suxareva<sup>16</sup>, antropolog V.P.Alekseyev<sup>17</sup>, Yu.V.Bromley, R.G.Podolniiy<sup>18</sup> kabi mualliflarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash joizdir.

Mikluxo-Maklay nomidagi Etnografiya instituti ilmiy jamoasi tomonidan 1986-yilda chop etilgan "O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy marosimlari, e'tiqod va kul'tlari" nomli jamoaviy monografiyada O'rta Osiyo xalqlari turmush tarzi, xo'jalik an'analari hamda oilaviy marosimlaridagi islomgacha bo'lgan e'tiqodiy qarashlar va kul'tlar bilan bog'liq marosimlar ham boy etnografik materiallar asosida batafsil tahlil qilingan<sup>19</sup>. Mazkur monografiya asosan, sovet davri etnograflari tomonidan O'rta Osiyoning turli tarixiy-etnografik mintaqalarida yashovchi xalqlarga oid to'plangan dala etnografik materiallari asosida yozilgan bo'lib, unda bir qator etnoslar turmush tarzi bilan bog'liq marosimlar genezisiga oid qator ilmiy mulohazalar qatori etnoekologik madaniyat an'alariga doir muhim fikrlar bildirilgan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan ekologik madaniyat muammolariga oid tadqiqotlarning ham salmog'i borgan sari ortib bormoqda. Shu boisdan ushbu davrdagi ilmiy nashrlar alohida turkumni tashkil etadi. Mazkur turkumdagi adabiyotlar kommunistik mafkuradan xoli, yangicha nuqtai nazardan yaratilganligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu guruhga kiruvchi adabiyotlar sirasiga U.Abdullayev<sup>20</sup>, M.Jo'rayev<sup>21</sup>, A.Musaqulov<sup>22</sup>, Sh.Otaboyev va Z.Hidoyatova<sup>23</sup> kabi olimlarning asarlari mansub bo'lib, ularda tadqiq qilinayotgan muammoning ayrim jihatlari yoritilgan. Qolaversa, Sh.Otaboyev, Z.Hidoyatova, S.Mirvaliyev va E.Tursunovlarning izlanishlarida insoniyatning dunyoviy ekologik muammolarini ilmiy asosda hal etish, jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda ijtimoiy ekologik omillarning antropogen taraqqiyotdagi o'rni, salomatlikni saqlash, ekologik muammolarni bartaraf etish va sohaga doir ta'limotlarni mukammallashtirish borasida muhim fikrlar bildirilgan<sup>24</sup>.

U.Abdullayevning tadqiqotlarida Farg'ona vodiysidagi etnoslararo aloqalar XIX asr oxiri – XX asr doirasida mukammal yoritilgan. Shu bilan birga muallif u yoki bu etnosning turmush tarzini yoritishda o'rganilayotgan muammoga doir ma'lumotlarni ham keltirgan. M.Jo'rayev va A. Narziqulov<sup>25</sup> asarlarida ham tadqiqotning ayrim o'rinlarida muammoning u yoki bu qirralarini yoritishda foydalanildi.

---

<sup>16</sup> Сухарева О. К вопросу о генезисе профессиональных культов у таджиков и узбеков. Труды академии наук таджикской ССР. Т. СХХ, 1960. – С. 195–207.

<sup>17</sup> Алексеев В. Очерки экологии человека. – Москва, 1993. – 191 с.

<sup>18</sup> Бромлей Ю., Подольный Р. Человечество – это народы. – Москва: Мысль, 1990. – 391 с.

<sup>19</sup> Древние обряды верования и культы народов Средней Азии. – Москва: Наука, 1986. – 206 с.

<sup>20</sup> Абдуллаев У. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 216 б.

<sup>21</sup> Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 2008. – 291 б.

<sup>22</sup> Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – 307 б.

<sup>23</sup> Отабоев Ш. Экология, дин ва саломатлик. – Тошкент, 2007. – 106 б.; Отабоев Ш., Ҳидоятова З. Экология, гигиена ва сихат-саломатлик. – Тошкент: Фан, 2007. – 116 б.; Отабоев Ш., Мирвалиев С., Турсунов Э. Экологияда маданият ва маънавият муаммолари. – Тошкент: Нишон ношир, 2009. – 279 б.

<sup>24</sup> Отабоев Ш. Экология, дин ва саломатлик. – Тошкент: 2007. – 106 б.; Отабоев Ш., Ҳидоятова З. Экология, гигиена ва сихат-саломатлик. – Тошкент: Фан, 2007. – 116 б.; Отабоев Ш., Мирвалиев С., Турсунов Э. Экологияда маданият ва маънавият муаммолари. – Тошкент: Нишон ношир, 2009. – 279 б.

<sup>25</sup> Нарзиков А. Дехқон тақвими. – Тошкент, 1991. – 62 б.

Mustaqillik yillarida Respublikada mahalliy etnograf olimlar tomonidan ham mavzuga doir bir qator monografik va kompleks tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunday ilmiy izlanishlar sirasiga O.Bo‘riyev va O.Sharipov, A.Ashirov, A.Sarimsokov va B.Xalmuratovlarning dissertatsiya, monografiya, maqola hamda tezislarini kiritish mumkin<sup>26</sup>.

Keyingi yillarda mahalliy faylasuflar tomonidan ijtimoiy ekologiya yo‘nalishi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ham salmog‘i ortib bormoqda. Mazkur tadqiqotlarda inson va atrof-muhitni asrash madaniyatining falsafiy jihatlarini hamda ijtimoiy ekologiya muammolariga doir yangi ilmiy g‘oyalarni olib kirildi. Chunonchi, bu borada B.Ziyomammedov<sup>27</sup>, T.Qo‘yliyev<sup>28</sup>, S.Mamashokirov<sup>29</sup>, D.Rasilov<sup>30</sup>, V.Levinskaya<sup>31</sup>, R.Mamatqulov<sup>32</sup> va U.Saidova<sup>33</sup>, Z.Adilov<sup>34</sup> hamda N.Nishonova<sup>35</sup>larning ilmiy izlanishlari muhim rol o‘ynaydi.

Vodiy o‘zbeklariga xos an’anaviy moddiy madaniyatining ekologik aspektlarini o‘rganishda dala etnografik materiallari ham muhim o‘rin tutadi. Vodiy o‘zbeklarining ekologik qarashlari uzoq tarixiy davrlar mobaynida asosan, tabiiy-geografik sharoit ta’sirida, xalqning an’anaviy turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, urf-odat va an‘analari, diniy tasavvurlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq holda shakllangan. XX asrning ikkinchi yarmida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jabhalar bilan bir qatorda madaniy sohada ham tub “inqilobiy

---

<sup>26</sup> Бўриев О., Рахмонов Ф. Мироб – сув ҳоқими // Мозийдан садо. – Тошкент, 2004. – №4. – Б. 32–33; Бўриев О. Сув – ҳаёт манбаи / Қашқадарё воҳаси этномаданий қадриятлари. – Тошкент, 2014; Бўриев О., Равшанов А. Ўзбек халқи этноэкологик маданияти: тарих ва ҳозирги замон / “Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумида “Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари” мавзусидаги VII анъанавий Республика илмий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2015; Бўриев О., Шарипов Ф. Ўзбекларда заминни эъзозлаш билан боғлиқ қадимги эътиқодлар / “Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумида “Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари” мавзусидаги VIII анъанавий Республика илмий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2019. – Б. 201–209; Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Тошкент: Мерос, 2001. – 31 б.; О‘sha muallif: Ўзбек халқининг табиат билан боғлиқ сайллари / “Замонавий бадиий маданиятда фольклор ва халқ ижодиёти” мавзусидаги халқаро конференция материаллари. – Бойсун, 2002. – Б. 8–10; О‘sha muallif: Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007. – 275 б.; О‘sha muallif: Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – 205 б.; Саримсоков А. Ўзбекларнинг тақвимий маросимлари. – Тошкент: Янги нашр, 2014; Халмуратов Б. Ўзбек халқи анъанавий дунёқараши ва миллий қадриятлари тизимида сув // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2010. – №2. – Б. 129–133; О‘sha muallif: Ўзбек халқи анъанавий дунёқараши ва миллий қадриятлари тизимида оловга бўлган эҳтиром // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2016. – №1. – Б. 138–142; О‘sha muallif: Сув илмининг билимдонлари // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2018. – №1. – Б. 67–68

<sup>27</sup> Зиёмухамедов Б. Экология ва маънавият. – Тошкент: Мехнат, 1997. – 101 б.

<sup>28</sup> Куйлиев Т. Особенности формирования и развития экологической культуры (Социально-философский анализ). Автореф. дис... канд. философ. наук. – Ташкент, 1993. – 27 с.

<sup>29</sup> Мамашокиров С. Экологик хавфсизликни таъминлашнинг ижтимоий-сиёсий омиллари. Фалс. фан. док. дисс... автореф. – Тошкент, 1997.

<sup>30</sup> Расилов Д. Урбанизациялашган муҳитнинг экологик маданиятни ривожлантиришдаги роли. Фалс. фан. ном. дисс... автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 48.

<sup>31</sup> Левинская В. О. Понятие, структура и функция экологической культуры. Автореф. канд. философ. наук. – Ташкент, 2000. – 28 с.

<sup>32</sup> Маматқулов Р.П. Ўзбек халқи ахлоқий қадриятларида табиатга оқилона муносабат ва унинг ҳозирги кундаги аҳамияти. Фалс. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 25 б.

<sup>33</sup> Саидова У.Г. Экологик маданият тарихи ва унинг ривожланиш босқичлари. Фалс. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2008. – 25 б.

<sup>34</sup> Адиллов З.Ю. Диний манбаларда экологик муаммоларнинг ечими. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... – Урганч, 2020. – 170 б.

<sup>35</sup> Нишонова Н.Ў. Умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларининг экологик маданиятини шакллантириш (адабий таълим жараёнида). Пед. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2001. – 133 б.

o'zgarishlar" ro'y bergan. Buning natijasida Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy ekologik qarashlari ham ma'lum darajada o'zgarishlarga uchragan.

Mavzuning o'rganilish darajasini ilmiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mavjud manbalar va adabiyotlar mualliflari tomonidan dehqonchilik urf-odatlarini, marosimlari haqida ba'zi bir etnografik ma'lumotlarni berilgan. Lekin ularning ishlarida o'rganilayotgan masala maxsus yoritilmagan. Shu jihatdan olganda, tanlangan ilmiy muammo etnologik yo'nalishdagi dastlabki dissertatsion tadqiqot hisoblanadi.

Mavzuga doir xorijiy adabiyotlar tahlilida N.Alimbayev, M.S.Mukanov, X.Arginbayev<sup>36</sup>, V.I.Kozlov<sup>37</sup>, V.L.Ogudin<sup>38</sup>, A.N.Yamskov<sup>39</sup>, R.Balliyeva<sup>40</sup>, Yu.Odum<sup>41</sup>larning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rossiyalik olim V.Ogudin "Страна Фергана (эколого-религиоведческое исследование)" nomli asarida ekologik madaniyat muammolarini bartaraf etishda ziyoratgohlarning o'ziga xos funksiyalariga e'tibor qaratilgan. Muallifning bu boradagi izlanishlari ziyoratgohlarni o'rganishda yangi bir yo'nalish ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu olim o'z asarida Farg'ona vodiysida yashovchi etnoslar turmush tarzida ziyoratgohlarning o'ziga xos o'rni va uning xalq diniy-ekologik qarashlariga ta'siri xususida atroflicha to'xtalgan<sup>42</sup>. V.Ogudin Farg'ona vodiysi diniy-ekologik madaniyatini o'rganishda o'ziga xos metodlardan foydalanganligi bilan ilmiy tadqiqotga ham bevosita aloqadordir. Ushbu muallifning bir qator ilmiy izlanishlarida bajarilayotgan tadqiqot uchun zarur bo'lgan ziyoratgohlarning o'ziga xos vazifalariga doir nazariy-uslubiy yondashuvi muhim ahamiyatga ega.

Xullas, mavzu doirasida bajarilgan ilmiy izlanishlarning tarixshunoslik tahlili shunday dalolat beradiki, Farg'ona vodiysi o'zbeklarining ekologik madaniyati maxsus tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining "Zamonaviy o'zbeklar: tarixiy-etnologik tadqiqot" nomli davlat granti loyihasi, Namangan muhandislik-qurilish instituti va Namangan davlat universiteti hamkorligidagi "Farg'ona vodiysi arxeologiyasi va etnologiyasining dolzarb muammolari" rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy ekologik madaniyatining etnolokal xususiyatlari, uning taraqqiyot bosqichlari va

---

<sup>36</sup> Алимбаев Н., Муканов М., Аргынбаев Х. Традиционная культура жизнеобеспечения казахов. Очерки теории и истории. – Алматы: Гылым, 1998. – 234 с.

<sup>37</sup> Козлов В.И. Многоаспектность этнической экологии / Этноэкологические исследования. Сборник статей к 80-летию со дня рождения В.И. Козлова. – Москва: Старый Сад, 2004. – С. 7–35.

<sup>38</sup> Огудин В. Страна Фергана (эколого-религиоведческое исследование). – Москва: Центр стратегический и политических исследований, 2002. – 198 с.

<sup>39</sup> Ямсков А.Н. Экологические функции основных компонентов традиционной культуры / Этноэкологические исследования: Сб. статей к 80-летию со дня рождения В. И. Козлова. – Москва: Института этнологии и антропологии РАН, 2004. – С. 36–60.

<sup>40</sup> Баллиева Р. Этнические особенности природопользования каракалпаков. VI конгресс этнографов и антропологов России. – СПб., 2005. – С. 335.

<sup>41</sup> Одум Ю. Экология: В 2-х т. Т. 1. – Москва: Мир, 1986. – 328 с.

<sup>42</sup> Огудин В. Страна Фергана ... – 198 с.; O'sha muallif: Экологическая функция религии // Этнографическое обозрение (ЭО). – Москва, 2001. – № 1. – С. 22–38.

zamonaviylik jarayonlar ta'sirida o'zgarishini elshunoslik nuqtai nazaridan ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

– etnografik, etnoekologik, arxeologik, fol'klorshunoslik hamda etnosotsiologik yo'nalishlardagi manba va adabiyotlarga tayanib, ilk diniy tasavvurlar, tabiat kul'ti, zardushtiylik hamda islom dinining atrof-muhit bilan bog'liq ekologik konseptsiyasini tahlil qilish;

– Farg'ona vodiysi o'zbeklari turmush tarzida saqlanib kelayotgan atrof-muhitni asrashga doir urf-odat, an'ana va marosimlarning etnohududiy xususiyatlarini yoritib berish;

– oilaviy marosimlarning ekologik jihatlarini tadqiq etish asnosida, Farg'ona vodiysi o'zbeklariga xos an'anaviy ekologik madaniyatning tarixiy asoslariga aniqlik kiritish;

– vodiy o'zbeklarining xo'jalik an'analari, xususan, dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq ekologik madaniyat shakllarini xo'jalik-madaniy tiplar asosida yoritish, mazkur xo'jalik yuritish shakllari bilan bog'liq qadimiy tabiat kul'ti hamda uning mahalliy aholi turmush tarzidagi ahamiyatini ko'rsatib berish.

**Tadqiqot ob'yektini** Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy etnoekologik madaniyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** vodiy o'zbeklarining atrof-muhit bilan bog'liq qarashlari, urf-odat va marosimlari tahlilidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Ishda tavsifiy va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, semantik-semiotik nazariya, kuzatish kabi usullardan keng foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Farg'ona vodiysi o'zbeklarining etnoekologik qarashlari tizimi (yer, suv, havo va olov kabi tabiat unsurlarining sofligini saqlash hamda ulardan unumli foydalanish) tarixiy manba va adabiyotlar asosida kompleks tahlil qilinib, etnoekologik tasavvurlarning ilmiy metodologik asoslari va rivojlanish dinamikasi xronologik jihatdan asoslangan;

mintaqaga xos ekologik bilimlar va qarashlar “o'lib, qayta tiriluvchi” tabiat kul'ti, agrar timsollar kabi qadimgi politeistik e'tiqodiy qarashlardan monoteistik ta'limotlar (zardushtiylik, islom)ga evolyutsion tarzda transformatsiyalashgani dalillangan;

vodiy o'zbeklarining kundalik turmush tarzidagi etnoekologik qarashlar va u bilan bog'liq an'analari siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar hamda zamonaviy globallashtirish jarayonlar ta'sirida evrilishlarga uchraganligi aniqlangan;

“umumiylik” va “o'ziga xoslik” kabi qiyosiy kategoriyalar kontekstida vodiy o'zbeklarining moddiy madaniyati (turar joylar, kiyimlar va taomlar)dagi ekologik o'zgarishlarda tabiiy-geografik muhit (tog', tog' oldi, cho'l, tekislik va dasht)ning ta'siri katta bo'lganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

– Farg'ona vodiysiga xos ekologik bilimlar mintaqa aholisi turmush tarzi, xo'jalik hayoti, madaniyati, oilaviy va ijtimoiy hayotida namoyon bo'lish ko'rinishlari mahalliy iqlim sharoiti, unga mos keluvchi turli xil etnohududiy xo'jalik an'analari bilan boshqa xalqlardan farqlanishi dalillangan;

– mintaqa aholisiga xos ekologik madaniyat oilaviy marosimlar va urf-odatlarining muhim bosqichlari (chaqaloq chillasi, xatna, muchal to‘yi, nikoh to‘yi)da namoyon bo‘lsa, xo‘jalik mashg‘ulotlari (dehqonchilik va chorvachilik) iqlim sharoitlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Shuningdek, o‘zbeklarning ijtimoiy va ma‘naviy hayoti (Navro‘z, Gul bayrami, Mehrjon, Hosil bayrami va h.k.)ni an‘anaviy tizimda davom etishida mavsumiy bayramlarning ekologik aspektlari zarurligi ko‘rsatilgan;

– XX asr oxiri – XXI asrning dastlabki yillaridan boshlab Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari an‘anaviy hayotida sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy jarayonlar, ijtimoiy-madaniy va fan-texnika sohalarida yuz bergan o‘zgarishlarning mintaqa aholisining an‘anaviy ekologik madaniyatiga ta‘siriga doir taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada zamonaviy tarix va etnologiya fanlarida e‘tirof etilgan turli-tuman yondashuvlarga tayanilganligi, tarixiy adabiyotlar hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillarining ilmiy izlanishlaridan samarali foydalanilganligi ilmiy natijalarning ishonchliligi sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Respublika va xalqaro ilmiy, ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgani bilan ham o‘z isbotini topdi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda tarixiy, etnografik va diniy manbalardagi etnoekologik qarashlar zamonaviy fan paradigmalari kontekstida etnologik jihatdan tahlil qilingan bo‘lib, Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining tabiat hamda tabiat kul‘tlari doir munosabatlari va etnoekologik madaniyatini shakllantirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa “Etnologiya asoslari”, “Dinshunoslik”, “Ekologiya”, “Etnoekologiya” va “Tabiatshunoslik” kabi fanlardan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda amaliy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining an‘anaviy ekologik madaniyatiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysi o‘zbeklari an‘anaviy ekologik madaniyatining etnolokal xususiyatlari, uning taraqqiyot bosqichlari va zamonaviylik jarayonlar ta‘sirida o‘zgarishlar bo‘yicha olib borilgan izlanishlar natijalaridan O‘zbekiston Ekologik harakati faoliyatini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Ekologik harakatining 2022- yil 22- dekabrda 12-117/-1-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining an‘anaviy ekologik madaniyatiga oid ma‘lumotlar va ilmiy natijalar ekologik harakatning ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarini tabiat bilan bog‘liq xalqimizning qadimiy urf-odat, an‘ana va marosimlari hamda uning tarixiy asoslari bo‘yicha mazmunli va yuqori saviyada ma‘ruzalar tashkil etish va undan amaliyotida keng foydalanish imkonini bergan;

vodiy o‘zbeklarining kundalik turmush tarzidagi etnoekologik qarashlar va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq an‘analar siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va

madaniy o'zgarishlar hamda zamonaviy globallashuv jarayonlar ta'sirida evrilishlarga uchraganligi, hamda "umumiylik" va "o'ziga xoslik" kabi qiyosiy kategoriyalar kontekstida vodiy o'zbeklarining moddiy madaniyati (turar joylar, kiyimlar va taomlar)dagi ekologik o'zgarishlarda tabiiy-geografik muhit (tog', tog' oldi, cho'l, tekislik va dasht)ning ta'siri katta bo'lganligiga doir ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalari" qo'mitasining konferentsiya materiallarini tayyorlashda, millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga qaratilgan turli madaniy-ma'rifiy sohalardagi tadbirlarni sifatli va samarali tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalari" qo'mitasining 2023-yil 2-martdagi 14-07-226-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur tadqiqot Farg'ona vodiysi o'zbeklarining an'anaviy etnoekologik madaniyati tizimini to'g'ri tushunish, talqin etishda muhim ahamiyat kasb etgan va ayni ko'nikmalarni ommaga to'g'ri targ'ib etishda muhim manba vazifasini bajargan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta (ulardan 6 tasi Respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda) maqola, 6 ta xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy anjumanlar tezislari e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 130 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'yekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining ishonchliligi, aprobatsiyasi, joriy qilinishi, dissertatsiya natijalarini e'lon qilinganligi hamda tarkibiy tuzilishi tavsiflangan.

Dissertatsiyaning "**O'zbek xalqi diniy e'tiqodlari tizimida atrof-muhit muhofazasiga oid qarashlar va konsepsiyalar**" deb nomlangan birinchi bobida ilk diniy tasavvurlar va tabiat kul'ti o'zaro bog'liqlik jihatlari, shu jumladan, totemizm, shomonlik, animizm, zardushtiylik va dinning boshqa shakllarida tabiatga bo'lgan munosabat, zardushtiylikning atrof-muhit bilan bog'liq ekologik kontsepsiyasi, uning mazmun-mohiyati va bugungi kundagi ahamiyati, islom dinida ekologiya muammolari: tavsifi va tahlili to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, mavzuning tarixshunoslik qismi ham aynan ushbu bobda tahlil qilingan.

Ushbu bobning "**Ilk diniy tasavvurlar va tabiat kul'ti**" deb nomlangan birinchi paragrafida ilk diniy tasavvurlar va tabiat kul'ti o'zaro bog'liqlik jihatlari,

shu jumladan, totemizm, shomonlik, animizm, zardushtiylik va dinning boshqa shakllarida tabiatga boʻlgan munosabatlar tavsifi hamda tasnifi berilgan.

Maʼlumki, qadimgi davrdan boshlab insoniyatning tabiat, oʻsimlik va hayvonot dunyosiga boʻlgan ilohiy munosabatlari asosida eʼtiqod va tajribalarni oʻzida jamlagan anʼanaviy ekologik madaniyat shakllana boshlagan. Ushbu madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tabiatni asrash bilan bogʻliq diniy anʼanalar shakllangan. Odamlar yashab kelgan geografik hududning iqlimi, tabiati, yil fasllarining almashib turishi hamda mavsumiy bayramlar asosida ekologik tasavvur rivojlana boshlagan.

Tabiat kulʼtini ilk diniy tasavvurlarning deyarli barchasida uchratish mumkin. Jumladan, totemizm qadimgi turkiy xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Totemizmda baʼzi oʻsimlik (daraxt) va hayvonlar odamning qoʻriqlovchisi va tangrilari hisoblangan. Muayyan qavm aʼzolari aniq bir hayvon zotidan tarqalgan degan tasavvurda boʻlganlar. Shu boisdan ham totem ular uchun ilohiy (muqaddas) hisoblangan.

Ibtidoiy odam hayotning toʻrt asosiy omili – yer, suv, toza havo va quyosh madadisiz oʻz tirikchiligining davomiyligini taʼminlay olmagan. Shuning uchun ham sovuq iqlimli mintaqalar aholisi, ayniqsa, quyosh madadiga muhtoj, quyoshsiz hayotni tasavvur eta olmaydilar. Oʻta issiq iqlimli oʻlkalarda koʻproq quyosh jazirasidan asrovchi omil hisoblangan suv va havoni ilohiylashtiriladi, ularga muqaddas iloh sifatida eʼtiqod qilinadi. Ona zamin esa quyosh va suv uygʻunligida inson faoliyatini asosiy omili sifatida muqaddaslashtirilgan. Ular uygʻunligidagi borliq, yerdagi hayot eng ulugʻ zot – insonga xizmat qiladi.

Maʼlumki, qadimda dunyoning koʻplab xalqlari tabiat unsurlari (yer, suv, togʻ, oʻsimlik kabilar)ni muqaddaslashtirganlar, ularni gʻayritabiiy kuchga ega deb bilib eʼtiqod qilganlar<sup>43</sup>.

Fargʻonaliklar orasida daraxtlarni jonli deb hisoblash va ularda odamlar ruhi yashashiga ishonish bilan bogʻliq qadimgi animistik qarashlar hozirga qadar saqlanib qolgan. Ziyoratgohlar hududidagi daraxt va oʻsimliklar muqaddaslashtirilganligi tufayli ularni kesish, yulish kishilarga ziyon-zahmat olib keladi deb hisoblangan. Chunonchi, xalq ogʻzaki ijodida daraxt erkak kishining ramziy timsoli, sanalgan. Muqaddas daraxt va butalar jumlasiga chinor, archa, tut, jiyda, pista, yongʻoq, oʻrik, olcha, tol, terak, qayragʻoch singari daraxtlar kirgan. Qolaversa, Fargʻona viloyatidagi muqaddas joylarning ayrimlari qadimdan daraxtlar nomi bilan atab kelingan<sup>44</sup>.

Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy odat, marosim va bayramlari koinot, tabiat, fasllar va mehnat faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan. Borliqdagi muhim toʻrt narsa (quyosh, havo, yer, suv)ni aniqlash bilan bir qatorda, ular bilan bogʻliq toʻrt

---

<sup>43</sup> Иванова Ю. В. Следы солярного культа / Календарные обычаи и обряды в странах зарубежной Европы конец XIX – XX вв / Исторические корни и развитие обычаев. – Москва: Наука, 1983. – С. 105–115; Oʻsha muallif: Обрядовый огонь / Календарные обычаи и обряды в странах зарубежной Европы конец XIX – XX вв. Исторические корни и развитие обычаев. – Москва: Наука, 1983. – С. 116–144; Филимонова Т.Д. Вода в календарных обрядах / Календарные обычаи и обряды в странах зарубежной Европы конец XIX – XX вв. Токарев С. А. О культе гор и его месте в истории религии // Советская этнография. – Москва, 1982. – №3. – С. 107–113; Тирта М. Культы природы у албанцев // ЭО. – Москва, 1998. – №4. – С. 63–69.

<sup>44</sup> Абдулахатов Н., Эшонбоев Ў. Кўҳна Марғилон зиёратгоҳлари. – Фарғона, 2007. – Б. 211.

ulug' kunni ham belgilab, nishonlashga odatlanishgan. Masalan, tabiat uyg'onishi, kun-tun tengligi, dala ishlarining boshlanishi pallasida – Navro'z, yozda – quyosh tik bo'lib, tun qisqa, kun uzun davom etganida, havo harorati yuqori darajaga ko'tarilib, suvga ehtiyoj kuchayganida suvga bag'ishlangan tadbir – Angom (Vaxshangom), kuzda kun-tun tenglashib, yilning ikkinchi yarmi boshlanganida, dehqonlar daladagi hosilni yig'ib olgan vaqtda – Mehrjon (Chiri-ruj, Nim-sarda); qishda – eng uzoq tun va qisqa kun sodir bo'lib, sovuq avjiga chiqqanida (“qishki chilla”), isinishga ehtiyoj kuchaygan paytda – Sada (Olov) bayrami (gulxanlarda isinish) kabilarni uyushtirishgan. Miloddan avval paydo bo'lgan ushbu bayramlarning barchasi kishilarning tabiiy ehtiyojlari asosida qaror topgan<sup>45</sup>.

Qadimgi diniy e'tiqodlarning deyarli barchasida olov bilan bog'liq tasavvurlar va qarashlar uchrab turadi. Bunday tasavvur va qarashlar zahirida olovga bo'lgan hurmat va e'tibor yotadi. Olov faqat yorug'lik va issiqlik manbai bo'lib qolmasdan, shu bilan birga uni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan saqlovchi vosita sifatida ham e'zozlanadi. Olov bilan bog'liq urf-odat va marosimlar xalqning ekologik diniy e'tiqodni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, o'zbek xalqining ekologik madaniyati umuminsoniy madaniyatning eng birinchi ko'rinishidir. U atrof-muhitga mehr-shafqat va ongli munosabatning shakllanishi natijasida paydo bo'lgan. U diniy qarashlar va tevarak atrof va muhit bilan bog'liqlikda rivojlangan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Zardushtiylikning atrof-muhit bilan bog'liq ekologik konsepsiyasi”** deb nomlanib, unda zardushtiylik dini bog'liq ekologik konsepsiya va qarashlar yoritilgan.

Xususan, Zardushtiylik kosmogonikasi bo'yicha yer gardish shaklida, namlik, suv hamma narsaning asosi, yerni okean qurshagan, u xuddi suvdagi taxtadek. Ana shu aqidaga ko'ra, zardushtiylik suvni hatto olovdan ham ortiqroq e'zozlaganlar. Ular fikricha, yerni qurshagan olti moddaning (olti ma'bud) birinchisi suv (Apam-Napat), unda hayot kuchi bor, suvdagi hayot kuchini o'limlik sharbatlari bilan boyitib borish kerak<sup>46</sup>.

Zardushtiylik bilan bog'liq ekologik konsepsiyalar tizimida nafaqat tevarak-atrof, shu bilan birga insonning o'zining pokligi borasida qayg'urilgan. Chunonchi, “Avesto”da doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz-qo'lni bir necha marta yuvish, qo'lni yuvmasdan turib tananing boshqa joyini ushlamaslik, sochni toza tutib tirnoqlarni tozalab turish maslahat berilgan. “Vendidot”ning 17-bobida shaytonning najosati to'planadigan va kesib tashlanadigan tirnoq va sochni nima qilish kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riq berilgan<sup>47</sup>.

Soch va tirnoqlarning afsungarlik xossalari haqidagi zardushtiylik qarashlari izlari xalqimiz hayotida bugungi kungacha saqlanib qolgan. Tadqiqotchilarning fikricha, tirnoqlarni olganda chekka yerga tashlash kerak<sup>48</sup>. Agar chetqoq joyga

<sup>45</sup> Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент: Шарқ, 2002. – Б. 33.

<sup>46</sup> Сулаймонова Ф. Нур Шарқдан таралади // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1992. – №11–12. – Б. 8.

<sup>47</sup> Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик... – Б. 169–170.

<sup>48</sup> Троицкая А.Л. Рождения и первые годы жизни ребенка у таджиков долины Зерафшана // Советская этнография (СЭ). – Москва, 1935. – № 6. – С. 132; Толеубоев Т. Реликты доисламских... – С. 76; Фриштейн А. О некоторых обычаях и поверьях, связанных с рождением ребенка у узбеков Южного Хорезма / Семья и семейный обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1978. – С. 206.

tashlanmasa, u qiyomat-qoyimda o'sha odamning oyog'i ostidan teshib chiqar emish. Shu bois ham odamlar tirnoqlarini olganda qog'ozga kafanga o'xshatib o'rab: "Qora yer senga topshirdim. Shamol sen guvoh bo'l"<sup>49</sup>, – deb chetroq yerga ko'mib qo'yganlar. Mazkur odat zamirida odam tana qoldig'i hisoblangan sochi, tirnoqni avaylash asosida inson va tabiat o'rtasidagi ijobiy munosabatlar shakllana boshlagan.

Zardushtiylik ta'limotida suv muqaddas unsur sanalib, avvalo, uning tozaligi borasida qayg'urilgan. Buning uchun suv manbalari – daryolar, ko'llar yoki quduqlar har qanday nopokliklardan qat'iy himoya qilingan. Agar marosimiy nopok bo'lgan qandaydir narsani yuvish kerak bo'lsa, suv maxsus joyga to'plangan, lekin shunda ham nopok narsa to'g'ridan-to'g'ri suv bilan yuvilmagan. Bunda nopok narsa avval sigir siydigi bilan yuvilib, quyoshda yoki qumda quritilgan va so'ngra yakuniy poklash maqsadida suv bilan yuvilgan. Shuningdek, yomg'ir yoqqan paytda tashqariga chiqish taqiqlangan, chunki bu bilan suvni va yerni "makruh" qilib qo'yish mumkin, deb o'ylaganlar. Suvni isrof qilish va bulg'ash og'ir gunoh hisoblangan. "Avesto"da bu borada "Pokiza suv va yonib turgan olov oldida gustohlik qilgan zotning do'zaxda topguvchi jazosi bu dunyoning jamiyki dardu ozorlaridan mudhishdir"<sup>50</sup>, – deyilgan.

Tadqiqot jarayonida Farg'ona vodiysi aholisi turmush tarzida ham suv o'ziga xos muqaddas unsur sifatida e'zozlanishi kuzatildi. Jumladan, vodiya ham suvni bemavrid isrof qilish, uni bulg'ash, suvga tupurish va nopok iflos narsalarni suvga tashlash qat'iy taqiqlangan bo'lib, bunday ishlarni qilish og'ir gunoh hisoblanadi. Suv keladigan ariqlar, kanallar va zovurlar, qabristonlarni har yili bahorda hashar yo'li bilan tozalanadi. Yangi kanal, ariqlar qazishga hozirgi davrda ham eng savobli ishlardan biri sifatida qaraladi.

Ajdodlardan meros, butun dunyo olimlari tomonidan o'rganilayotgan "Avesto"da yaylovlar, butazorlarni yakson qilmaslik, ekinzor, bog'-rog', mevali daraxtlarga zarar yetkazmaslik, atrof-muhit pokizaligini asrash, buloq, quduq, hovuz, ariqlar tozaligiga alohida e'tibor qaratish kerakligi xususidagi ibratli fikr-mulohazalar keragicha topiladi. Masalan, hovuz yoki ariq bo'yida mol boqqan yoki o'sha yerga otini bog'lagan har qanday shaxs, daraxtning bir shoxini sindirgan ham, nopok ko'zani hovuzga solgan ham 25 qamchi kaltaklanish bilan jazolangan. Atrof-muhitni, ko'cha-ko'yni, butazor, o'tloqlar yerni, suvni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar "400 qamchi urish jazosiga" hukm qilingan"<sup>51</sup>.

Zardushtiylarda tevarak-atrof tozaligini saqlash, tabiat holati bilan bog'liq jarayonga xalal bermaslik – zardushtiylar ezgu amalining bir qismidir. Jamoa a'zolari, shu jumladan, yoshlar tabiatni asrash va go'zallashtirish ruhida tarbiyalanganlar. Ular yoshligidan ko'chat o'tqazish, uni parvarishlash, ko'kalamzorlashtirish, bog'-rog'lar barpo etish, ariq va hovuzlarni iflos qilmaslikka o'rgatilgan.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi "**Islom dinida ekologiya muammolari: tavsifi va tahlili**"ga bag'ishlangan bo'lib, unda islom dinining tabiatni, atrof-

<sup>49</sup> Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий... – Б. 62.

<sup>50</sup> Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик... – Б.122.

<sup>51</sup> Yuqoridagi manba... – B. 64.

muhitni asrab-avaylashga oid ta'limotlari dala-etnografik materiallar asosida tahlil qilingan.

O'zbek xalqi madaniyatining asosi bo'lgan islomiy an'analar asrlar davomida xalqni ozodalik, poklik, yerni, suvni, havoni bulg'amaslikka da'vat etgan. Alloh yaratgan har bir jonli maxluqotlar – o'simliklar, hayvonot dunyosi va hokazolarga mehr va shafqat nazari bilan qarash talab etilgan. Umuman, islom ta'limotida jonli, jonsiz tabiatni asrash, umuman borliqqa ijobiy munosabat keng o'rin olgan.

“Gunoh” va “savob” tushunchalari islom dinida ma'lum bir kategoriya darajasiga ko'tarilgan. Islom dini sababsiz biror jonzot yoki o'simlik kabi tabiat ne'matlariga zarar yetkazishni taqiqlaydi. Bu taqiq ko'pincha diniy taqiq mohiyatini ifodalovchi “uvol” kategoriyasi orqali izohlanadi. Uvol asosida ham kishilarning ma'lum bir narsalarga bo'lgan ishonch-e'tiqodlari yotadi.

Islom dini insonlarni jonivorlarga zarar keltirmaslik, hayvonot olamiga mehribon bo'lishga chaqiradi. Alloh Taolo Qur'oni Karimda Yer yuzidagi barcha narsalarga, shu jumladan, hayvonot dunyosiga qanday munosabatda bo'lish kerakligini bizlarga mufassal bayon qilib bergan<sup>52</sup>.

Islom ta'limotiga binoan, odamlar hayvonot va nabotot olamiga ham odob bilan muomalada bo'lishga majburlar. Hayvonot va nabotot olamiga munosabat masalalari ham Qur'oni Karim oyatlarida batafsil bayon etilgan. Ulardan biri insonning nabotot olamida haqqi bo'lganidek, nabotot olamining ham insonlarda haqqi bor.

Qur'oni Karimda kishilarni Yer yuzidagi barcha narsalarga, shu jumladan, hayvonot dunyosiga qanday munosabatda bo'lish kerakligi batafsil bayon etilgan. Aksariyat oyatlarda musulmonlarga Alloh taoloning hayvonot olamini yaratish maqsadini tushuntirib berilgan. Xalqni hayvonot va nabotot olamini muhofaza etishga da'vat berilgan. Qur'oni Karimning “Baqara” surasi 29- oyatida “U shunday zotki, siz uchun yerdagi barcha narsalarni yaratdi”, ya'ni Alloh taolo o'zining yerdagi xalifasi bo'lgan insonni hayot kechirishi uchun yerni makon qilib yaratgan. Demak, yer yuzidagi barcha narsalar inson uchun yaratilgan ekan, o'z navbatida, har bir inson ham ularga nisbatan oqilona munosabatda bo'lib, ularni asrab-avaylashi kerak bo'ladi. Tuproq, suv, havo va boshqa narsalarni toza tutish va ularni ifloslantiruvchi va zarar beruvchi narsalardan saqlash islom dinining amridir<sup>53</sup>.

Farg'ona vodiysida joylashgan ko'plab muqaddas ziyoratgohlar islomiy ulomalar nomi bilan bog'liq bo'lgan. Ziyoratgohlar hududidagi tozalik, doimiy amalga oshiriluvchi obodonchilik faoliyati, qadamjoni o'rab turgan turli ob'yektlar o'ziga xos kichik qo'riqxonalar vazifasini bajargan. Ziyoratgohlar tog'da, dasht mintaqasida, qishloq yoki shaharda joylashganidan qat'i nazar, biror kimsaning u yerning tabiiy muhitiga ziyon yetkazmasligi jamoatchilik nazoratida bo'lgan. Shu bois ziyoratgohlar hududida noyob o'simlik va jonivorlar saqlab qolingani uchun ham ular “tabiiy qo'riqxonalar” hisoblanadi. Masalan, Namangan viloyati Chortoq tumani Baliqliko'l qishlog'ida joylashgan ziyoratgohdagi baliqlarni

<sup>52</sup> Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Мукамал саодат йўли. – Тошкент: Sharq, 2012. – Б. 347.

<sup>53</sup> Отабоев Ш. Экология, дин ва саломатлик. – Тошкент, 2007. – Б. 66–67.

ovlash ta'qiqlanadi. Mahalliy aholi orasida ushbu ta'qiqqa amal qilmagan, ya'ni baliqlarni ovlagan odam aqldan ozganligi haqida ma'lumotlar mavjud<sup>54</sup>.

Xullas, ziyoratgohlar hududidagi ekinlarni payhon etish, qadimiy daraxtlarni kesish, noyob jonzotlarni ovlashni taqiqlash asosida mahalliy aholining atrof-muhitni asrash madaniyati shakllangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek xalqi turmush tarzi va ekologik madaniyat uyg‘unligi”** deb nomlanib, unda oilaviy marosimlar va urf-odatlarda ekologik madaniyatning aks etishi, o‘zbeklarning mavsumiy bayramlari va tabiat muhofazasiga oid qarashlar, an’anaviy moddiy madaniyatning ekologik aspektlari yoritib berilgan.

Ushbu bobning dastlabki paragrafi **“Oilaviy marosimlar va urf-odatlarda ekologik madaniyat”** deb nomlanib, unda o‘zbeklarda bolaning tug‘ilgandan keyingi o‘tkaziladigan “Beshik to‘yi”, “Aqiqa to‘yi”, “Sunnat to‘yi” kabi marosimlarda an’anaviy ekologik madaniyat bilan bog‘liq ayrim qarashlar aks etgan.

Malumki, etnologiya fanida qabul qilingan o‘ziga xos mezonlarga ko‘ra, inson hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog‘liq holda o‘tkaziladigan tadbirlar oilaviy marosimlar deb yuritiladi. Oila va oilaviy marosimlar etnonga oid madaniy va maishiy an’analar uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi<sup>55</sup>.

O‘zbek oilasida bola dastlabki ekologik madaniyat bilan bog‘liq qarashlarni ota onasi yoki keksa yoshli bobo va buvilaridan eshitgan. Aynan ekologik madaniyat bilan bog‘liq qarashlarni turli oilaviy marosimlar va jamoaviy tadbirlar orqali singdirilgan. Shubhasiz, oilaviy marosimlarda yosh avlod bevosita yoki bilvosita ishtirokchiga aylangan. Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida bolalar yoshligidan ekologik madaniyat talablariga turli urf-odat va marosimlar asosida ko‘nikma hosil qilgan. Kundalik urf-odatlar zamirida ham atrof-muhit va tabiat unsurlarini muhofa etish bilan bog‘liq qarashlar mujassamlashganini kuzatish mumkin. Jumladan, o‘zbeklar orasida uy supurgisi tiklab qo‘yilsa, shu uyda biror falokat bosh ko‘taradi, janjal bo‘ladi”, – degan irim mavjud. Lekin, bu irimni zamirida uy supurgisini toza va ehtiyotkorlik bilan saqlash bilan bog‘liq maqsad mujassamlashgan bo‘lsa, “mag‘zava inson tanasidan chiqqan kirlar bo‘lib, uni toptash insonni baxtsizlikka, barakasizlikka, kasallikni keltirib chiqaradi”<sup>56</sup> – degan qarashlar esa o‘z navbatida, aholining ekologik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilsak, oilaviy marosimlar maishiy turmush va oila hayoti bilan bog‘langan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Oilaviy marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllana boshlagan.

Mazkur bobning **“O‘zbeklarning mavsumiy bayramlari va tabiat muhofazasi”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida Farg‘ona vodiysiga xos taqvimiy marosimlarning ekologik aspektlari aks etgan.

Tarixdan ma'lumki, bahoriy uyg‘onish bayrami – Navro‘z qadimiy bo‘lib, uning ildizi neolit yoki tosh asri (mil. avv. X – V minginchi yillar)ga borib

<sup>54</sup> Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chortoq tumani Baliqliko‘l qishlog‘i. 2010- yil.

<sup>55</sup> Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий... – Б. 73.

<sup>56</sup> Dala yozuvlari. Andijon viloyati Andijon tumani Kuyganyor qishlog‘i. 2021- yil.

taqaladi. Mazkur davrda insoniyat iste'mol davridan (yovvoyi donli o'simliklar va mevalarni to'plash, ov qilish) million yil keyin ushbu ekinlarni o'zlashtira boshlagan. Dehqonchilik va sun'iy sug'orishga o'tish insoniyatni tabiat hodisalari va yil fasllari almashinuvi bilan bog'liq taqvimlarni anglashga olib kelgan.

Ikkinchi an'anaga ko'ra, Navro'z bahorgi tengkunlikka to'g'ri kelishi kerak, bunda o'layotgan va tirilayotgan tabiat ilohasi sharafiga turli rasm-rusumlar va marosimlar bajarilgan. Aynan mazkur sayllar va marosimlar asosan tabiatda muqaddas ziyoratgoh va qabristonlar atrofidagi keng maydonlarda o'tkazilgan. Shuningdek, aynan bahor kelishi bilan birga bahorning kelganligi nishonasi sifatida "Boychechak sayli", "Lola sayli", "Sunbul sayli" kabi turli gul sayllarini nishonlash ham o'zbeklarga xos azaliy odatlardan hisoblangan. Ming yillar davomida o'tkazilib kelinayotgan an'anaviy gul bayramlaridan ko'zlangan asosiy maqsad bahorni kelishini nishonlash bilan birga, o'zbek xalqida qadimdan ushbu faslni gul bilan kutib olish odati mavjud. Bahorning ilk kunlarida, go'yoki quyoshning iliq nurlari ostida boychechak unib chiqadi. O'zbeklarda u bahor elchisi, baxt-sodat xabarchisidir. Bahorning dastlabki shodiyonasi ham boychechak sayli hisoblanadi. Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysida keng ommalashgan "Boychechak sayli"da bolalar dasta-dasta boychechaklar terib, so'ngra to'p-to'p bo'lib uyma-uy yurib qo'shiqlar aytganlar, keksa buvilarimiz boychechakni ko'zlariga surtib "Omonlik, omonlik hech ko'rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik" deb niyat qilganlar.

Vodiy o'zbeklari doimo o'zi yashaydigan hududlarni obodonlashtirish, gulzorlarga aylantirish, umuman atrof-muhitni muhofaza qilishga ko'mak beruvchi bayramlardan biri an'anaviy gul bayrami bo'lgan.

Farg'ona vodiysi aholisi o'simliklarning o'sishdan to'xtab uyquga ketishi va mehnat mavsumi yakunlanishini "Mehrjon" ("Yil yarmi") sifatida nishonlashgan. Bu bayram koinot, tabiat qonuniyatlari, Quyosh va Yer o'rtasidagi munosabatlar asosida vujudga kelgan. Jumladan, Navro'z bahorgi kun-tun tengligini qayd qilsa, "Mehrjon" kuzdagi o'sha holatni ta'kidlagan. "Mehrjon" bayrami, bir tomondan, koinot va yerga jon ato etib turgan quyoshni qadrlashga da'vat qilgan, ikkinchidan barchani qish g'amini yeyishga undagan. "Mehrjon bayrami"ni Abu Rayhon Beruniy Navro'zdan so'ng eng ulug' bayramlardan biri deb ta'kidlagan. Bu kun Mehrmoh (yilning yettinchi oyi)ning o'n oltinchi kuniga to'g'ri kelgan. Bu so'z mazmuni asarda "jon sevgisi" deb berilgan<sup>57</sup>. Ayrim manbalarga ko'ra, "Mehr" so'zining ma'nosi "Quyosh" bo'lib, afsonalarda keltirilishicha, shu kuni quyosh olamga zohir bo'lgan ekan.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan xulosa shuki, tabiatni muhofaza qilish insonning o'zini har qanday salbiy ta'sirlardan asrash demakdir. Inson tabiatning hosilasi, inson tabiatning asosiy ob'yektlari bo'lgan atmosfera havosi, suv, tuproq va tabiatdagi borliq bilan chambarchas bog'langan. Demak, tabiatda har qanday o'zgarish o'z navbatida, insonga o'zining salbiy yoki ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ushbu bobning **"An'anaviy moddiy madaniyatning ekologik aspektlari"** deb nomlangan uchinchi paragrafida Farg'ona vodiysi aholisining moddiy

---

<sup>57</sup> Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 1-том... – Б. 264.

madaniyati namunalari (uy-joylar, an'anaviy taomlar va milliy kiyimlar)ga xos qarashlarning ekologik jihatlari yoritib berilgan.

O'zbeklarda yashash makoni hisoblangan uy-joy, xususan, ota-bobolar joyi muqaddas dargoh hisoblangan va unga mehr qo'yilgan. Qolaversa, ota-bobolar yerining muqaddasligi borasida juda ko'p hikmatli so'zlar, matal, maqol va rivoyatlar mavjud<sup>58</sup>.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarida uy-joylarni tiklash va yangi uyga ko'chib kirish bilan bog'liq urf-odat va marosimlari negizida ma'lum bir e'tiqod, diniy qarashlar hamda milliy qadryatlar mujassamlashgan. Bu esa shubhasiz, ushbu urf-odatlarining qadimiyligi, xalqning milliy mafkurasi, qadimiy diniy e'tiqodlarining taraqqiyoti tarixi hamda diniy qarashlarning yashovchanlik xususiyatlaridan dalolat beradi. Aynan shu nuqtai nazardan vodiyl o'zbeklarida eski uyni buzib, yangisini qurishdan avval ushbu xonadonda yashab o'tgan ajdodlar ruhiga bag'ishlab marosimiy qurbonlik qilib, is chiqarish odati keng tarqalgan.

Kiyim-kechaklar moddiy madaniyatning umummilliy xususiyatlarini aks ettiruvchi omillaridan biri bo'lishi bilan birga urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik me'yorlarni ham o'zida aks ettiradi<sup>59</sup>.

Insonning jismonan rivojlanishi, kuch-quvvati hamda salomatligi, qolaversa, aqliy kamolotida asosiy manba bo'lgan taomlar xalq madaniyatining ajralmas tarkibiy qismlaridan birini tashkil qiladi.

O'zbek milliy taomlari xalq turmush tarzi, avvalo, xo'jalik mashg'ulotlari, milliy va diniy qarashlari asosida, mahalliy tabiiy shart-sharoitga bog'liq holda shakllangan. Qolaversa, moddiy madaniyatning muhim komponentlaridan biri bo'lgan xalq an'anaviy taomlari, ularning tayyorlanish usullari, hatto taomlar bilan bog'liq an'ana va marosimlar ushbu xalq xo'jaligining yo'nalishi va etnos turmush tarziga bog'liq holda shakllangan.

Sug'orma dehqonchilik hamda dasht dehqonchilik xo'jalik madaniy tipiga mansub aholi taomlarida ko'proq don va donli mahsulotlardan taom tayyorlash muhim ahamiyat kasb etgan. Yarim o'troq chorvador aholi un va yormalarni yorg'uchoqlarda tortgan. O'troq aholi esa, suv hamda hayvon kuchi bilan harakatga keltiriladigan tegirmonlarda tortganlar<sup>60</sup>. Bug'doy tog'li hududlarda lalmi usulda yetishtirilgan bo'lsa, daryo bo'yi va unga tutash hududlarda sug'orma usulda yetishtirilgan. Norin va Qoradaryoning atrofidagi qishloqlarda dukkakli ekinlardan ko'proq sholi, mosh, no'xat yetishtirilgan<sup>61</sup>.

Farg'ona vodiysi o'zbeklari an'anaviy moddiy madaniyatining ekologik aspektlari masalasiga xulosa o'rnida aytish mumkinki, moddiy madaniyat asosiy komponentlarini tashkil qilgan – turar joylar, an'anaviy kiyimlar va milliy taomlarda insoniyat taraqqiyotining ilk alomatlari aks etishi bilan birga ularda tabiiy-geografik muhit, xo'jalik yuritish shakllari, etnik o'ziga xoslik saqlanib qolgan.

<sup>58</sup> Нозилов Д. Марказий Осиё меъморчилигида интерьер. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 71.

<sup>59</sup> Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари. – Тошкент: Шарк, 2003. – Б. 6.

<sup>60</sup> Dala yozuvlari. Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Paromon qishlog'i. 2021- yil.

<sup>61</sup> Dala yozuvlari. Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlog'i. 2021- yil.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“An’anaviy xo‘jalik mashg‘ulotlari va tabiatdan foydalanish tizimining transformatsiyasi”** deb nomlanib, unda dehqonchilik mashg‘ulotlari va an’anaviy tabiatdan foydalanish tizimi transformatsiyasi, chorvachilik bilan bog‘liq an’analarda etnoekologik qarashlar hamda o‘zbeklarning zamonaviy ekologik madaniyati kabi masalalar tahlil qilingan.

Mazkur bobning **“An’anaviy dehqonchilik mashg‘ulotlari va tabiatdan foydalanish tizimi transformatsiyasi”** deb nomlangan birinchi paragrafida vodiya aholisining dehqonchilik bilan bog‘liq mashg‘ulotlarida etnoekologik jihatlar aks etgan.

Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarining an’anaviy turmush tarzida etnoekologik qarashlar bilan bog‘liq oilaviy marosim va urf-odatlar ham muhim o‘rin tutgan. Ajdodlarimiz olamning paydo bo‘lishi, oy, quyosh, yulduzlarning doimiy harakati xususida muayyan bilimga ega bo‘lganlar.

O‘zbeklar tasavvurida yerdagi har bir insonning samoda o‘z yulduzi bor, samo yulduzlaridan biri uchgan lahzada, yerdagi odamlardan biri vafot etadi degan qarashlar shakllangan. “Agar samoda birorta yulduz uchayotganini ko‘rsangiz, mevali daraxtga qarang” degan naql ham mavjud<sup>62</sup>. Bizningcha, ushbu naqlning zamirida mevali daraxtning hosildorlik xususiyati asosiy mazmuni bilan bog‘langan. Demak, mazkur xalqona qarashning shakllanishida hosildorlik kul‘ti ham alohida o‘rin tutgan.

Dehqonchilik bilan bog‘liq ravishda o‘tkazilgan urf-odatlar, marosimlar turli agrar kul‘tlarga bo‘lgan ishonch asosida shakllangan. Shu boisdan ham dehqonchilik bilan bog‘liq udum va marosimlarning ko‘plari tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sig‘inishga asoslangan. Sharqning dehqonchilik vohalari aholisi qadimiy turmush tarzida muhim o‘rinni egallagan o‘lib qayta tiriluvchi ilohlar kul‘ti taniqli dinshunos va etnograf V.N. Basilovning fikricha, aynan islom ta’sirida unutilgan<sup>63</sup>. Biroq, ular butkul unitilib ketmagan, balki islomiy an’analar bilan o‘zaro sinkretlashgan tarzda to bugungi kungacha saqlanib kelgan. Jumladan, Namangan viloyati Chust tumani Dam qishlog‘ida bahorgi dala ishlarini boshlashdan avval fermerlar uyushmasidagi dehqonlar yig‘ilishib, Bobodehqonga bag‘ishlab, xo‘roz so‘yib, qurbonlik qiladilar<sup>64</sup>. Bu, birinchidan, bahorgi dala yumushlarini boshlashdan avvalgi marosimiy qurbonlik bo‘lsa, ikkinchidan, ushbu marosim orqali dehqonchilik homiysi – Bobodehqonga bo‘lgan ehtirom ifodasi hisoblanadi.

O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida erta bahorda dalaga suv keladigan asosiy ariq va kanallar loyqadan hashar usulida tozalangan<sup>65</sup>. Hashar oxirida ushbu ariq, kanallarga soy yoki daryolardan suv ochilib, qurbonlik marosimi o‘tkazilgan<sup>66</sup>. Ushbu marosim uchun ham mahalliy aholi o‘zaro pul, bug‘doy va oziq-ovqat mahsulotlari to‘plab, pulga “jonliq” (buzoq, bo‘z biya, oq toychoq,

<sup>62</sup> Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Doimobod qishlog‘i. 2020- yil.

<sup>63</sup> Басилов В.Н. Культ святых в исламе. – Москва: Мысль, 1970. – С. 10.

<sup>64</sup> Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust tumani Dam qishlog‘i 2010- yil.

<sup>65</sup> Бўриев О. Хашар – элга ярашар / Ўзбек халқининг боқий қадриятлари. – Қарши. 2005. – Б. 57–67.

<sup>66</sup> Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа. – Тошкент: Фан, 1974. – С. 179–180; Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. – Б. 100–101.

qo‘chqor yoki echki) sotib oladi va uni qurbonlik qilganlar<sup>67</sup>. Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlog‘ida ham dehqonchilik ishlarini boshlanishida yoki qishloq ariqlariga suv ochish jarayonida yuqoridagi kabi qurbonlik marosimi o‘tkazilgan<sup>68</sup>.

Xullas, ekin-tikinchi bilan bog‘liq xalq urf-odatlarini, marosimlari dono xalqimiz tafakkurining g‘aroyib mo‘jizalaridan biridir. Ajdodlarimiz necha necha asrlar ularga amal qilgan, shu bilan birga ziroatchilikka taalluqli qoidalar, duolar, aytimlar va alomatlarini yaratgan. Ajdodlarimiz dehqonchilik madaniyati taraqqiyoti jarayonida atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq turli urf-odat va an‘analarga asos solgan. Bu esa, o‘z navbatida, ekologik ma‘rifat va madaniyat rivojiga xizmat qilmoqda.

Ushbu bobning **“Chorvachilik bilan bog‘liq an‘analarda etnoekologik qarashlar”** deb atalgan ikkinchi paragrafida mazkur xo‘jalik mashg‘ulotlarida saqlanib qolgan o‘zbek xalqiga xos ekologik madaniyat ko‘rinishlari, ushbu mashg‘ulot bilan bog‘liq qarashlar, urf-odatlar etnografik materiallar asosida ma‘lum darajada o‘rganilgan.

Ma‘lumki, o‘zbek chorvadorlari qadim zamonlardan xo‘jalik yuritishda boy tajriba va ko‘nikmalarga ega bo‘lib kelganlar. Chorvadorlarda o‘sha davrlardayoq shakllangan xo‘jalikka oid bilimlar ajdoddan avlodga meros tariqasida o‘tib kelgan. Hozirgi davrdagidek zootexnika va veterinariya xizmatining yo‘qligiga qaramasdan, chorvadorlar uy hayvonlarini o‘ziga xos usul va yo‘llar bilan davolashga harakat qilganlar. Ularning ayrim ko‘rinishlari hozir ham chorvadorlar orasida keng qo‘llaniladi.

Dissertatsiya uchinchi bobining **“O‘zbeklarning zamonaviy ekologik madaniyati”** deb nomlangan yakundovchi paragrafida Farg‘ona vodiysi o‘zbeklariga xos etnoekologik madaniyat ko‘rinishlari yoritib berilgan.

Ekologik madaniyat – atrof-muhitdan tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetgan, hamda inson faoliyat ta‘sirining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini inobatga olgan holda foydalanishdir. Ekologik madaniyat taraqqiyoti kasbiy ekologik ta‘lim va tarbiya hamda haqqoniy ekologik ma‘lumotlarni ommaga yetkazish bilan chambarchas bog‘liqdir<sup>69</sup>.

Fan-texnikaning rivojlanishi atrof-muhit haqidagi bilimlarning kengayishi va o‘z navbatida tabiat va jamiyat tizimidagi o‘zaro ta‘sirning o‘zaro keskinlashishi ekologiyaning biologiya fanining kichik bir qismidan ajralib, alohida fan sifatida rivojlanishiga olib keldi. Ekologiya – tabiat fanlarining barcha soha va tarmoqlariga kirib borib, jamiyat hayotining muhim jabhalari hisoblangan iqtisodiyot, siyosat, ma‘naviyat-madaniyat, ijtimoiy majmualarni qamrab oldi. Tabiat va jamiyat hayotining barcha soha va yo‘nalishlarini qamrab olgan ushbu jarayon, ya‘ni “Ekologiyalizatsiyalashtirish” asosida bugungi kunda murakkab tizimga ega bo‘lgan, global ahamiyatdagi ekologiya fani shakllandi. Ekologiya fani

---

<sup>67</sup> Снесарев Г. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969. – С. 238–239; Шаниязов К. К этнической истории... – С. 189–190; Древние обряды верования и культуры народов Средней Азии. – Москва: Наука. 1986. – С. 57.

<sup>68</sup> Dala yozuvlari. Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlog‘i. 2021- yil.

<sup>69</sup> Алихонов Б., Самойлов С. Ўзбекча-русча-инглизча экологик изоҳли луғат. – Тошкент, 2004. – Б. 225.

hozirgi kunda 70 ga yaqin “Tabiat – jamiyat tizimida”gi ta’limot va g’oyalar majmuasini o‘z ichiga oladi, ya’ni, odam ekologiyasi, iqtisodiyot ekologiyasi, muhandislik ekologiyasi, agroekologiya, kimyoviy ekologiya, huquqiy ekologiya va boshqalar<sup>70</sup>.

Demak, ushbu muammoning ekologik, geografik, tarixiy-etnologik, falsafiy, diniy, huquqiy, madaniyatshunoslik kabi muhim ijtimoiy yo‘nalishlari mavjud. Bu yo‘nalishlarda to‘plangan tajribalar umumlashtirilsagina, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatlar shakllanadi.

## XULOSA

Dissertatsiya yakunida quyidagi ilmiy **xulosalarga** kelindi:

1. Ona tabiatning mushtarak qismi va gultoji bo‘lmish odam ilk shakllanishidan boshlab tevarak-atrof bilan uzviy aloqada bo‘lgan. Atrof-muhit insonning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Shu boisdan insonlar qadimdan tabiat va atrof-muhit muhofazasiga jiddiy e’tibor berilgan. Jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sanalgan Turonzamin aholisi ajdodlari ham ona tabiatni asrash va e’zozlash bo‘yicha o‘ziga xos etnoekologik qadriyatlar tizimini yaratgan.

2. Ajdodlarimiz qadimgi davrlardan buyon tabiat unsurlari hisoblangan Yer, suv, havo, olovni behad e’zozlaganlar. Afsuski, texnologik taraqqiyot oqibatida, ayrim an’analar unutilmoqda. Shu sababli, o‘zbeklarning ekologik madaniyatiga doir, atrof-muhitdan oqilona foydalanishi bilan bog‘liq marosimlarini yanada chuqurroq o‘rganish, uning chinakam, asl mazmun-mohiyatini anglab yetish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

3. Qadim davrlardan boshlab ulug‘ ajdodlarning tabiat, o‘simlik va hayvonot dunyosiga nisbatan shakllangan e’tiqodiy munosabatlariga asoslangan an’anaviy bilimlar, tajribalarni o‘zida birlashtirgan xalq ekologik madaniyati rivojlandi. Bu xalq madaniyatining tarkibiy hamda eng muhim qismi sifatida atrof-muhitni asrash bilan bog‘liq milliy qadriyatlar kamol topdi. Shu jumladan, o‘zbek xalqi va uning ajdodlari istiqomat qilgan hududda mavjud geografik o‘rin, iqlim va tabiatni asrab-avaylash bilan bog‘liq marosimlar tizimi vujudga kelgan.

4. Atrof-muhitni ozoda saqlash xonadon obodligi, yer-suv resurslarini muhofaza qilish kabi ishlar diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg‘unligida amalga oshirilgan. Oilaviy munosabatlar diniy qadriyatlar shakllana boshlagan dastlabki davrlardayoq shariat me’yorlari asosida qurilgan edi. “Avesto” mazmunini inson ma’naviyati nuqtai nazaridan tahlil etish nihoyatda qiziqarli xulosalarga imkon berishi shubhasiz. Zardushtiylikning ushbu muqaddas kitobida tabiatga munosabatning ikki jihati e’tirof etilgan.

5. Shuningdek, islom dinida ham bir qator etnoekologik qarashlar o‘z aksini topgan. Xususan, Qur’oni Karim va hadislarda qayta-qayta uqtirilishicha, din – poklikdir. Har kuni besh marta tahorat olib, badanni tozalab yuvish, turar joylarni supurib-sidirish, changdan saqlanish uchun hovli va ko‘chalarga suv sepish, o‘zi va o‘zgalar uchun toza muhit yaratish, qabristonlarni tozalab turish, chiqindilarni maxsus joyga ko‘mish kabi yumushlar ham insonlarga qulay ekologik sharoit

---

<sup>70</sup> Экология хукуки. Дарслик. – Тошкент, 2001. – Б. 33.

tugʻdirish maqsadida bajarilgan. Erta bahorda hashar yoʻli bilan ariq va anhorlarni tozalash, toza suvga axlat tashlamaslik, hovlida magʻzava toʻkish uchun maxsus oʻra boʻlishi ham ekomadaniyatning keng ravnaq topganligidan dalolat beradi. Islom dinida yer, suv munosabatlariga boʻlgan eʼtiborning kuchliligi, shariat va tariqatning axloqiy tarbiyadagi oʻrni katta ekanligini koʻrish mumkin.

Xullas, oʻzbek xalqining etnoekologik madaniyati nihoyatda uzoq tarixga ega boʻlib, davrlar oʻtgan sari aksariyati unutilmoqda, baʼzilarigina kundalik turmush tarzimizda saqlanib qolgan, xolos. Ushbu noyob madaniyatni teran oʻrganish, tiklash, xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongiga chuqurroq singdirish hozirgi mustaqillik davrida eng dolzarb masalalardan biridir.

Shuningdek, tadqiqotning yakunida quyidagi **amaliy tavsiyalar** berildi:

1. Oʻzbek xalqining boy ekologik madaniyatini kengroq yoritish maqsadida ilmiy-ommabop risolalar va maqolalar chop etishni yangi bosqichga koʻtarish hamda targʻibot-tashviqot ishlarini yoʻlga qoʻyish.

2. Oʻzbekistondagi barcha oliy oʻquv yurtlarida “Etnopedagogika”, “Etnoiqtisodiyot” va “Etnoekologiya” fanlarini oʻqitish tizimini joriy etish.

3. Oʻzbek xalqi sof milliy ekologik qadriyatlarga ajdodlarimiz qadim zamonlardan hozirgacha yaratgan ekologiyaga doir ogʻzaki, yozma, ilmiy, badiiy tarzda shakllangan ekologik qarashlar, fikr-mulohaza, xulosa, oʻgitlar, pand-nasihatlar, maqollar, tasviriy sanʼat asarlaridagi ekologik targʻibotga oid talqinlarni kiritish.

4. Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng asosiy masalalardan biri boʻlganligini inobatga olgan holda Oʻzbekiston Ekologik harakatining taʼsir doirasini kuchaytirish.

5. Ekologik nazariy bilimlar majmuasi asosida insoniyatning tabiatni oʻzgartirish va oʻzlashtirishdan iborat amaliy faoliyatni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, texnika hamda texnologiya taraqqiyotini oqilona tashkil qilish.

6. Ekologik madaniyat muammosi koʻlamidan kelib chiqib, atrof-voqelikni oʻzgartirishga yoʻnaltirilgan, tabiat boyliklarini saqlash va koʻpaytirishga qaratilgan harakatlarni oʻz ichiga oladigan ekologik madaniyatning rivojini taʼminlash zarur.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL UNDER THE SCIENTIFIC  
COUNCIL PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 AWARDED SCIENTIFIC  
DEGREES AT FERGHANA STATE UNIVERSITY**

---

**NAMANGAN ENGINEERING-CONSTRUCTION INSTITUTE**

**ISKHAKOV BEKHZOD BARKAMALOVICH**

**TRADITIONAL ECOLOGICAL CULTURE OF THE UZBEKS OF THE  
FERGHANA VALLEY (HISTORICAL-ETHNOLOGICAL RESEARCH)**

**07.00.07 – Ethnography, ethnology and anthropology**

**DISSERTATION ABSTRACT  
OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON HISTORICAL SCIENCES**

**Ferghana – 2023**

The theme of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in History is registered by the number B2017.1.PhD/Tar62 at the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation was conducted at Namangan engineering and construction institute.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) and on the information and educational portal "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

**Scientific advisor:**

**Ashirov Adhamjon Azimbaevich**  
Doctor of sciences in History, professor

**Official opponents:**

**Abdulhatov Nodirbek Uraimovich**  
Doctor of sciences in History (DSc), docent

**Isokov Ziyodullo Safaralievich**  
Candidate of sciences in History, docent

**Leading organization:**

**National University of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the One-time Scientific Council under the Scientific Council PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 awarding scientific degrees at Ferghana State University at 9<sup>00</sup> o'clock on 14 "08" in 2023 (Address: 19, Murabbiylar Street, Ferghana city. Gender Equality Research Center, 1st floor, meeting hall. Tel. : (99873) 244-44-02; fax: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu\_info@umail.uz., Ferghana State University).

The dissertation is available at the Information Resource Center of Ferghana State University (registered by the number 282). (Address: 150100, Ferghana city, 19, Murabbiylar Street, the building of Information Resource Center). Phone: (99873) 244-44-94.

The abstract of the dissertation was distributed on "29" 07 2023.  
(Register protocol number 24 on "29" 07 2023).



**B.A. Usmanov**

Chairman of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Sciences (DSc) in History, docent

**N.O. Alimova**

Secretary of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Philosophy (PhD) in History, docent

**M.G. Abdullaev**

Deputy of the chairman of the scientific  
seminar under the scientific council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Sciences (DSc) in History, docent

seminar under the scientific council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Sciences (DSc) in History, docent

## INTRODUCTION (abstract of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD))

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** The rapid development of science and technology and the economy in the late 20<sup>th</sup> century and the early 21<sup>th</sup> century, the destruction of biosphere ecosystems due to the increase of the impact of human factors on nature, desertification, and the rise of temperature on our planet are causing global ecological problems. Especially, the ecological problems such as pollution of atmosphere on earth, rise of the air temperature, rapid reduction of forests, soil degradation, shortage of clean drinking water, depletion of the ozone layer are of great importance.

By the leading scientific institutions of the world serious researches are being conducted on the study of the ecological danger that seriously damages the environment as a result of human development and the acceleration of the urbanization process together with the regional ecological cultures. In particular, according to the joint research conducted by the experts of the World Wildlife Fund (WWF) and the Zoological Society of London, since 1970, the number of wild animals and birds on earth has decreased by 3.43 thousand species, and the index of the living planet has decreased by 52%, that is, the species of animals living in the air and on land decreased by 76%, and the number of those living on land and in water decreased by 39%. Furthermore, 11 million hectares of tropical forests are cut down and die every year as a result of human activities<sup>1</sup>.

It is known from history that the conscious attitude of the Uzbek people towards the earth, water, air, fire and nature, and the genesis of their ancient traditions and rituals related to honor them goes back to the distant past. As the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoev mentioned correctly: «At present, the most important issue is to think seriously about raising the ecological culture of the population. Of course, such problems cannot be solved only by administrative way, it can be achieved by developing love for mother nature in the hearts of the young generation and a sense of belonging to it»<sup>2</sup>. It is known that the Ferghana Valley is the “jewel” of Central Asia, it is distinguished by its unique ecosystem and local eco-culture of its population. The fact that the valley is an orographically closed basin has created its unique changing climatic conditions. Therefore, as a result of the surrounding mountains preventing the entry of the air masses of cold climate of the Northern Arctic and the Atlantic climate coming from the west or the eastern moist air masses, have led to the formation of a unique ecosystem and eco-culture. For this reason, researching the traditional ecological culture of the Uzbeks of the Ferghana Valley historically and ethnologically is of great scientific and practical importance.

This dissertation serves to a certain extent for the implementation of the tasks specified in the decree No. PD-4947 of the President of the Republic of Uzbekistan on February 7, 2017 “On the Action Strategy for Five Priority Areas of Development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021” and the decree

---

<sup>1</sup> <https://uza.uz/posts/solving-ecological-problems-is-a-strategic-task-336097>. 8.01.2021 year.

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 570.

No. PD-60 “On the Development Strategy of New Uzbekistan in 2022-2026” on January 28, 2022,<sup>3</sup> a number of laws of the Republic of Uzbekistan as “On Protected Areas, “On the Protection and Use of Flora”, “On underground resources (new edition)”, “On water and water use”, “On protection and use of animal world”, “On the protection of Atmosphere Air”, “On Ecological Expertise”, “On Forest”, and in other regulatory documents and legal documents on the subject.

**Compliance of the research with the priority directions of the development of science and technology of the Republic.** The research corresponds to the priority direction of the program of the development of science and technology of the republic “Formation of a democratic and legal society, spiritual-educational, cultural development, innovative economy”.

**Scope of study of the problem.** Although the problem being researched has not been studied as a special research object, some aspects of the issue have been covered in many works and articles to a certain extent. In the research, the literatures on the subject, reflecting various aspects of the scientific problem, were analyzed by conditionally divided into four groups:

1) literatures related to the end of the 19<sup>th</sup> century and the beginning of the 20<sup>th</sup> century; 2) researches of the Soviet era; 3) publications published in the years of independence; 4) foreign literatures.

It is also necessary to note that the data about the lifestyle and traditions of the people of the Ferghana Valley by the researchers of the Russian Empire are of a more empirical nature, and only general conclusions can be drawn more from them. Later, they began to pay serious attention to the traditional lifestyle of the population of the valley, types of their economy and other aspects. In general, in the initial data about the country the views about the Turkestan region, in particular, the Ferghana Valley were reflected, in the first place, as the raw material base of the metropolis<sup>4</sup>, while in the later ones the opinions based on some deep scientific investigations were given.

For example, valuable scientific information about the Turkestan region, in particular, the Ferghana Valley, the nature, climate, and flora of the mountain ranges surrounding it, was collected by the botanist A.P.Fedchenko, the geographer and zoologist I.A.Seversev, the geologist I.V.Mushketov and I.G.Aleksandrov, who participated in the scientific expeditions organized by the Russian Empire<sup>5</sup>.

The service of the Russian scientist, academician A.F.Middendorf, who carried out extensive scientific research in the Ferghana Valley should be specially

---

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // <http://strategy.regulation.gov.uz>; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ60-сон “2022–2026- йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони // [lex.uz](http://lex.uz).

